



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 234 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
<i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
<i>Yorkulov Zafarjon Bakirovich</i>	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
<i>Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi</i>	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
<i>Dilnura Rustamovna Xamrayeva</i>	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
<i>Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich</i>	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
<i>Rahmatova Nasiba Sobirovna</i>	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
<i>Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna</i>	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
<i>Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna</i>	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
<i>Sobir Azizov</i>	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
<i>Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
<i>E. E. Jumayev</i>	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
<i>Jumayeva Gulxan Amrullayevna</i>	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
<i>Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li</i>	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
<i>Omonova Maftuna Shermatovna</i>	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
<i>Sevara Alimurodova, Ayubova Saida</i>	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
<i>Nurmaxonov Kayrat Erpayizovich</i>	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
<i>Poyonova Fazilat Olimovna</i>	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
<i>Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	
Application of Mechanotherapy Techniques in Oral and Craniofacial Surgical Methodologies (Literature Review)	140
Marufova Farangiz Gayratovna	
Theoretical Foundations for Developing Communicative Competence of Future Doctors	147
Nasimova Shahnoza Ziyodullayevna	
Формирование функциональной грамотности и "гибких навыков" (Soft Skills) у учащихся начальных классов в контексте реализации национальной учебной программы Узбекистана	152
Ю. С. Тажиева	
Talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish metodlari	156
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari	160
Koyshekenova Tatyana Kenesariyevna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	164
Qo'shaqov Farrux Furqat o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faollikni oshirishning pedagogik usullari	169
Xoldarova F. M.	
Ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	172
Madaminova Muzifa Shukurullo qizi	
Sport ta'limi yo'nalishidagi o'quvchilarining generativ sun'iy intellekt kompetensiyasini baholash mezonlari va indikatorlarini takomillashtirish	178
Nematova Rushana Nemat qizi	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini pedagogik tashkil etish metodikasi	184
Mirzayeva Umida Inamovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	188
Malikova Dilrabaxon	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	194
Temirova Shoxsanam Komilovna	
O'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik xususiyatlari	201
Boymirova Dilshoda Oblayor qizi	
Методы развития компетенций будущих учителей начальной школы в области создания текстов	208
Хаитова Нодира Бафроевна	



Inklyuziv maktabgacha ta'limda bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvida madaniy-tarixiy va ekologik yondashuvlar integratsiyasi	216
Mengliyeva Gavhar Ibrohim qizi	
Maktabgacha ta'lim jarayonida induktiv metodlardan foydalanishning xorijiy tajribasi	220
Mirazimova Muxabbat Normatovna	
Virtual muzeylar orqali tarixiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	225
To'ranazarova Muxlisaxon Davlatjon qizi	
Қорақалпоқ, туркман ва инглиз эртақларида образли нутқнинг миллий моделлари: фразеологизм, ранг ва маиший тимсоллар	230
Желбарова Саят Курбанмиратовна, Жаумитбаева Перийзат Караматдиновна	



VIRTUAL MUZEYLAR ORQALI TARIXIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODEL

To'ranazarova Muxlisaxon Davlatjon qizi
Qo'qon DPI tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0000-0941-8276

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak tarix fani o'qituvchilarida tarixiy tafakkurni rivojlantirish maqsadida virtual muzeylardan foydalanishning pedagogik modeli ishlab chiqilgan va ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Model uchta asosiy bosqichni – tayyorgarlik, faol o'rganish va refleksiya – o'z ichiga oladi hamda konstruktivizm, tajribaviy o'rganish va TPACK nazariyalari sintezi asosida qurilgan. Modelning samaradorligi xalqaro ilmiy adabiyotlar, empirik tadqiqotlar va pedagogik eksperiment natijalari bilan tasdiqlangan. Maqolada modelning har bir bosqichi uchun aniq didaktik vositalar, baholash mezonlari va amalga oshirish shartlari batafsil ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik model, virtual muzey, tarixiy tafakkur, bosqichli ta'lim, konstruktivizm, TPACK, refleksiya, tarixiy dalillar.

Abstract: This article develops and substantiates a comprehensive pedagogical model for using virtual museums to develop historical thinking in pre-service history teachers. The model integrates constructivist theory, Kolb's Experiential Learning Theory, and the TPACK framework, consisting of three main stages: preparation, active learning, and reflection. Each stage is supported by specific didactic tools, assessment rubrics, and implementation conditions. The effectiveness of the model is validated through international research findings, empirical studies, and comparative pedagogical analysis. The article provides concrete guidance for educators in Central Asian higher education institutions.

Key words: pedagogical model, virtual museum, historical thinking, staged learning, constructivism, TPACK, reflective practice, historical evidence.

Аннотация: В данной статье разработана и обоснована комплексная педагогическая модель использования виртуальных музеев для развития исторического мышления будущих учителей истории. Модель интегрирует конструктивистскую теорию, теорию экспериментального обучения Колба и модель TPACK, состоит из трёх основных этапов: подготовки, активного обучения и рефлексии. Представлены конкретные дидактические средства, критерии оценивания и условия реализации модели.

Ключевые слова: педагогическая модель, виртуальный музей, историческое мышление, этапное обучение, конструктивизм, TPACK, рефлексия.

KIRISH

Zamonaviy pedagogik ilm-fan ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun tizimli yondashuvlar – pedagogik modellar – zarurligini alohida ta'kidlaydi. Pedagogik model o'quv-tarbiyaviy jarayonning maqsadi, mazmuni, usullari va vositalarini o'zida mujassamlashtiruvchi nazariy-amaliy konstrukt bo'lib, u ilmiy asoslilik, amaliy qo'llanilish va takrorlanuvchanlik kabi xususiyatlar bilan ajralib turadi^[7].

Pedagogik modelni loyihalashda uning qaysi nazariy paradigmaga tayanishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan birga virtual muzeylar ta'lim muhitida tobora muhim o'rinni egallayotgan pedagogik vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Virtual muzey – bu real yoki xayoliy muzey fondini raqamli shaklda ifodalovchi, interaktiv bo'lim va multimedia imkoniyatlariga ega bo'lgan onlayn platforma bo'lib, u foydalanuvchiga makon va vaqtdan qat'i nazar madaniy-tarixiy obyektlar bilan muloqot qilish imkonini beradi^[15].

UNESCO [19] ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha 95 000 dan ortiq muzeyning katta qismi hozirda virtual ko'rgazma imkoniyatlarini taqdim etmoqda. Tarix ta'limida tarixiy tafakkurni rivojlantirish alohida strategik vazifa hisoblanadi. Sam Wineburg^[21] o'zining fundamental asarida tarixiy tafakkur – bu "tabiiy" emas, balki maxsus o'rgatishni talab qiladigan tanqidiy va analitik fikrlashning o'ziga xos shakli ekanligini isbotlagan. Uning ta'bi-



richa, tarixchi ko'zi bilan voqelikni ko'rish uchun manbalarga shubha bilan yondashish, muallif niyatini anglash va zamonasining kontekstini hisobga olish zarur. Bu ko'nikma bo'lajak o'qituvchilarda maqsadli ta'lim jarayoni orqaligina shakllanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik modelimizning birinchi nazariy poydevori – konstruktivizm nazariyasidir. Lev Vygotsky ^[20] ta'limda ijtimoiy o'zaro ta'sir va madaniy vositachilik (mediation) rolini asoslab bergan bo'lsa, Jean Piaget ^[14] bilish jarayonining assimilyatsiya va akkomodatsiya orqali rivojlanishini ko'rsatib bergan. Konstruktivizm nuqtai nazaridan, o'rganuvchi bilimni passiv qabul qilish orqali emas, balki mavjud bilimlar bilan yangi ma'lumotlarni faol tarzda bog'lab, uni o'zi qurib o'zlashtiradi.

Virtual muzeylar konstruktivistik ta'lim muhitini yaratish uchun qulay platforma hisoblanadi. Jonassen ^[6] virtual muhitlarning konstruktivistik o'rganishga quyidagi yo'llar bilan ko'maklashishi mumkinligini ta'kidlaydi:

- murakkab, haqiqiy muammolar bilan ishlash imkonini berish;
- ko'p nuqtayi nazar va tahlilni rag'batlantirish;
- bilim qurishda hamkorlikni qo'llab-quvvatlash va o'z-o'zini anglashni (refleksiya) rag'batlantirish.

Virtual muzeylar aynan shu to'rt shart uchun ham ideal muhit yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

So'nggi tadqiqotlar bu aloqani empirik jihatdan tasdiqlaydi. Hu va Hwang ^[4] virtual muzey muhitida o'z-o'zini boshqaruvchi muammoga asoslangan ta'lim yondashuvi qo'llanilganida, o'quvchilarning yuqori darajali fikrlash ko'nikmalari (Bloom taksonomiyasining tahlil, sintez, baholash bosqichlari) sezilarli darajada rivojlanganligini aniqladi. Tadqiqotda 128 nafar ishtirokchi bilan o'tkazilgan eksperiment natijalari nazorat guruhiga nisbatan tajriba guruhida statistik jihatdan muhim farq ($p < 0.05$) mavjudligini ko'rsatdi. Ikkinchi nazariy poydevor – David Kolb ^[8]ning Tajribaviy o'rganish nazariyasi (Experiential Learning Theory – ELT). Kolb o'rganishni to'rt bosqichli siklik jarayon sifatida tasvirlaydi:

- (1) **Aniq tajriba (Concrete Experience)** – o'rganuvchi biror faoliyatda bevosita ishtirok etadi;
- (2) **Refleksiv kuzatish (Reflective Observation)** – u o'z tajribasini kuzatadi va tahlil qiladi;
- (3) **Abstrakt konseptualizatsiya (Abstract Conceptualization)** – tushunchalar va nazariyalar shakllanadi;
- (4) **Faol eksperimentatsiya (Active Experimentation)** – yangi holatlarda sinab ko'riladi.

Virtual muzeylar bilan ishlash bu to'rt bosqichni tabiiy tarzda qamrab oladi: o'quvchi avval virtual ko'rgazma bilan tanishadi (aniq tajriba), keyin ko'rganlarini muhokama qiladi (refleksiv kuzatish), so'ng tarixiy xulosalar chiqaradi (abstrakt konseptualizatsiya) va nihoyat o'zi virtual muzey loyihasini yaratib ko'radi (faol eksperimentatsiya). Kolb siklining bu to'liq amalga oshishi virtual muzeylarni ayniqsa samarali o'quv vositasiga aylantiradi. Morris ^[13] o'z tadqiqotida virtual muhitlar Kolb sikliga muvofiq loyihalanganda, o'rganuvchilarning bilimni saqlab qolish ko'rsatkichi 40% ga oshganini aniqladi.

Uchinchi poydevor – Mishra va Koehler ^[12] tomonidan ishlab chiqilgan TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) modelidir. Bu model o'qituvchi kompetentligini uchta bilim sohasining kesishmasida ko'radi: texnologik bilim (TK), pedagogik bilim (PK) va mazmun bilimi (CK). Ularning kesishmasida esa TPACK – texnologiyalar pedagogik mazmun bilan integratsiyalashgan holda qo'llaniladigan eng yuqori kompetentlik darajasi yotadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Virtual muzeylardan foydalanish TPACKning barcha komponentlarini bir vaqtda faollashtirishni talab etadi: o'qituvchining virtual platformani texnik jihatdan bilishi (TK), o'qituvchining metodologik yondashuvi (PK) va tarixiy mazmunni chuqur bilishi (CK) bir-biri bilan uyg'unlikda bo'lishi zarur. Subramaniam ^[18]ning meta-tahlili shuni ko'rsatdiki, TPACK konsepsiyasiga asoslangan o'quv dasturlarida ishtirok etgan talabalar an'anaviy dasturlarga nisbatan raqamli texnologiyalardan pedagogik jihatdan samarali foydalanish qobiliyatini 35% ko'proq namoyish etdi. Peter Seixas va Tom Morton ^[16] tarixiy tafakkurning oltita asosiy konseptini aniqlagan:

- (1) **Tarixiy muhimlik (Historical Significance)** – qaysi voqealar muhim va nima uchun;
- (2) **Manbalar bilan ishlash (Evidence)** – dalillarni tanqidiy baholash;



- (3) **Uzluksizlik va o'zgarish (Continuity and Change)** – tarixiy jarayon dinamikasi;
- (4) **Sabab va oqibat (Cause and Consequence)** – tarixiy hodisalarning sababiy aloqalari;
- (5) **Tarixiy nuqtayi nazar (Historical Perspectives)** – turli tomonlarning pozitsiyasini tushunish;
- (6) **Axloqiy o'lchov (Ethical Dimension)** – o'tmish voqealarini hozirgi qadriyatlar nuqtayi nazaridan baholash.

Stéphane Lévesque ^[9] bu oltita konseptning tarixiy tafakkurni o'lchash va rivojlantirish uchun ishonchli mezonlar tizimini tashkil etishini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlarida virtual muzeylar va raqamli arxivlar bilan ishlash aynan manbalar bilan ishlash, tarixiy nuqtayi nazar va axloqiy o'lchov komponentlarini rivojlantirishda eng katta samarani berishi aniqlangan. Springer Nature (2024) tadqiqotida bo'lajak ijtimoiy fanlar o'qituvchilari virtual muzeylarni o'zlari loyihalash orqali tarixiy tafakkurning barcha olti komponenti bo'yicha sifat jihatidan yuqori natijalar ko'rsatgani aniqlandi.

Tadqiqotda ishtirok etgan 47 nafar talabaning 89%i virtual muzey loyihasini yaratish jarayonida tarixiy dalillarni tanqidiy baholash ko'nikmasini egalladi. Maryani va boshqalar ^[11] tomonidan o'tkazilgan bibliometrik tahlil (Scopus ma'lumotlar bazasida 2015-2024 yillar orasidagi 312 ta maqola asosida) shuni ko'rsatadiki, muzeylar va meros joylari tarixni o'qitishda hayotiy platformalar sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Virtual va kengaytirilgan reallik ilovalari orqali bu muhitlarni boyitish ishtirokchi va immersiv o'quv tajribalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Taklif etilayotgan pedagogik modelning asosiy maqsadi – virtual muzeylar vositasida bo'lajak tarix fani o'qituvchilarida Seixas va Morton ^[16] tomonidan aniqlangan olti komponentli tarixiy tafakkurni tizimli va bosqichli ravishda rivojlantirishdir. Model quyidagi to'rt tamoyilga asoslanadi:

1. **Faollik tamoyili:** O'quvchi jarayonning passiv kuzatuvchisi emas, balki faol ishtirokchisi sifatida harakat qiladi. Bu tamoyil konstruktivizm nazariyasining "bilim faoliyat orqali quriladi" g'oyasiga tayanadi.
2. **Integrativlik tamoyili:** Virtual muzeylar boshqa ta'lim vositalari (an'anaviy arxiv manbalari, akademik resurslar, hamkorlik platformalari) bilan uyg'unlikda qo'llaniladi. Bu tamoyil TPACK modelining TK+PK+CK integratsiyasi g'oyasini aks ettiradi.
3. **Bosqichlilik tamoyili:** Murakkablik darajasi va kognitiv talab ketma-ket oshib boradi – Bloom taksonomiyasining quyi bosqichlaridan (eslash, tushunish) yuqori bosqichlariga (tahlil, baholash, yaratish) qarab harakatlanadi.
4. **Refleksivlik tamoyili:** Har bir bosqich tahlil va refleksiya bilan yakunlanadi. Bu tamoyil Kolb siklining "refleksiv kuzatish" va "abstrakt konseptualizatsiya" bosqichlariga mos keladi.

Tayyorgarlik bosqichining didaktik maqsadi – bo'lajak o'qituvchilarni virtual muzeylar bilan ishlashga texnik va nazariy jihatdan tayyorlashdan iborat. Bu bosqich Kolb siklining "aniq tajriba" fazasiga to'g'ri keladi. Mazmun jihatidan bu bosqichda uchta yo'nalish parallel ravishda olib boriladi.

Birinchi yo'nalish – nazariy tayyorgarlik: tarixiy tafakkurning olti komponenti va ularning diagnostik belgilari bilan tanishish, konstruktivizm va tajribaviy o'rganish nazariyalarining asosiy g'oyalarini o'zlashtirish.

Ikkinchi yo'nalish – texnik tayyorgarlik: Artsteps, Google Arts & Culture, Sketchfab, Smithsonian 3D, Europeana kabi platformalar bilan ishlashni o'rganish.

Uchinchi yo'nalish – metodologik tayyorgarlik: virtual muzeylarni ta'lim maqsadlarida qo'llash metodikasi, virtual ko'rgazmalarni didaktik nuqtayi nazardan tahlil qilish ko'nikmasini egallash.

Baholash mezoni: talabalarga ikkita tanlab olingan virtual muzeyni Seixas va Morton ^[16] mezonlari asosida didaktik tahlil qilish topshirig'i beriladi. Tahlil natijasi 5 ballik shkalada baholanadi, bunda 1 ball – yuzaki tani-shuv, 5 ball – tarixiy tafakkurning barcha olti komponenti bo'yicha chuqur tahlil. Faol o'rganish bosqichi Kolb siklining to'rt bosqichini ham qamrab oladi va modelning markaziy qismi hisoblanadi. Bu bosqichda talabalar 3–4 kishilik kichik guruhlarda muayyan tarixiy mavzuga bag'ishlangan virtual muzey loyihasini ishlab chiqadilar. Loyiha ishining tuzilmasi quyidagicha:

- 1–2-hafta – mavzu tanlash va manba bazasini shakllantirish (tarixiy dalillarni aniqlash va birlamchi baholash);
- 3–4-hafta – virtual muzey strukturasini loyihalash va raqamli kontentni tayyorlash (tarixiy kontekst, izohlar, multimedia elementlari);
- 5–6-hafta – loyihani yakunlash, o'zaro tekshirish (peer review) va taqdimotga tayyorgarlik.



Didaktik vositalar:

- tarixiy dalillarni tahlil qilish uchun maxsus ishchi varaqlar (Historical Thinking worksheets);
- guruhlarda ishlash uchun onlayn hamkorlik platformalari (Google Jamboard, Miro, Padlet);
- refleksiya uchun elektron kundaliklar (haftalik kirish majburiy);
- o'zaro baholash rubrikasi (Seixas va Mortonning olti komponenti asosida ishlab chiqilgan).

Wineburg ^[21]ning "tarixiy tafakkur" konsepsiyasi bo'yicha loyiha ishlab chiqish jarayoni talabalardan quyidagilarni talab etadi: manbalarga shubha bilan yondashish va ularning ishonchligini tekshirish (corroboration); muallif niyati va tarixiy kontekstni o'rganish (sourcing); tarixiy voqelikni o'sha davrning mentaliteti orqali tushunishga harakat qilish (contextualization). Uchinchi bosqich Kolb siklining "refleksiv kuzatish" va "abstrakt konseptualizatsiya" fazalarini to'liq amalga oshiradi. Marovah va Ncube (2023) ta'kidlaganidek, refleksiya bosqichsiz o'rganish jarayoni o'z kognitiv potentsialining katta qismini yo'qotadi. Bu bosqichda uchta asosiy faoliyat amalga oshiriladi:

- (1) **Ochiq taqdimot** – har bir guruh o'z virtual muzeyini taqdim etadi (10–15 daqiqa), so'ng savollar va muhokama o'tkaziladi;
- (2) **Tengdoshlar bahosi** – har bir talaba boshqa guruhning loyihasini rubrika asosida baholaydi;
- (3) **Refleksiv esse** – har bir talaba "Bu tajriba mening tarixiy tafakkurimni qanday rivojlantirdi?" mavzusida 500–700 so'zlik refleksiv esse yozadi.

Refleksiv esse baholash mezonlari Hatton va Smith ^[3]ning refleksiya darajalari modeliga asoslangan:

- tasvirlash darajasi (learning daraja) – faqat nima qilganini aytib beradi;
- tushuntirish darajasi (descriptive reflection) – o'z tajribasini nazariya bilan bog'laydi;
- tanqidiy refleksiya darajasi (critical reflection) – o'z amaliyotini keng ijtimoiy va kasbiy kontekstda tahlil qiladi.

Pedagogik modelni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi shart-sharoitlar zarur. Moddiy-texnik shart: talabalar va o'qituvchilar uchun zamonaviy kompyuter yoki planshet, tezkor internet aloqasi va virtual muzey platformalariga kirish imkoniyati. O'zbekiston sharoitida bu masala hali to'liq hal etilmagan: Stat.uz (2024) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining 68%i yetar darajadagi IT infratuzilmasiga ega bo'lgan holda, 32%da internet tezligi yoki qurilmalar yetishmasligi muammo bo'lib qolmoqda.

O'qituvchi kompetentligi: TPACK modeli asosida raqamli savodxonlik va virtual muzeylar bilan ishlash tajribasiga ega bo'lish. Buhagiar va Potter (2018) ta'kidlaganidek, o'qituvchi o'zi ishonch bilan foydalana olmagan texnologiyani o'quvchilariga samarali o'rgata olmaydi. Shuning uchun amaliy treninglar va uzluksiz kasbiy taraqqiyot (CPD) dasturlari zarur.

Dastur mosligi: virtual muzey bilan ishlash oliy ta'lim muassasasining tarix o'qitish metodikasi kursi doirasida rasmiy o'quv dasturiga integratsiya qilinishi va kredit soatlari bilan ta'minlanishi zarur. Bu integratsiya modelning tizimli va barqaror qo'llanilishini kafolatlaydi. Modelni to'liq o'tagan bo'lajak tarix o'qituvchilari quyidagi kompetensiyalarni egallashlari kutiladi:

- tarixiy dalillarni aniqlash, tekshirish va tanqidiy baholash;
- tarixiy kontekstni tushunish va turli nuqtayi nazardan izohlash;
- virtual muzeylarni pedagogik maqsadlarda mustaqil loyihalash va qo'llash;
- raqamli vositalar orqali o'quvchilarni tarixiy tafakkurga yo'naltirish metodikasini egallash.

International Society for Technology in Education (ISTE, 2023) standartlari bo'yicha bu kompetensiyalar "raqamli fuqaro" va "bilim konstruktori" darajalariga mos keladi – bu esa modelning xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlaydi.

XULOSA

Taklif etilayotgan uch bosqichli pedagogik model virtual muzeylarning imkoniyatlarini konstruktivizm (Vygotsky, Piaget), tajribaviy o'rganish (Kolb), TPACK (Mishra & Koehler) va tarixiy tafakkur (Wineburg, Seixas) nazariyalari bilan organik ravishda uyg'unlashtiradi. Model bo'lajak tarix fani o'qituvchilarini tayyorlashda quyidagi uchta asosiy afzallikni taqdim etadi:



- (1) **Nazariy poydevor mustahkamligi** – to'rtta o'zaro to'ldiruvchi nazariy asos modelga pedagogik asoslilik bag'ishlaydi;
- (2) **Amaliy yo'naltirilganlik** – har bir bosqich uchun aniq didaktik vositalar, baholash rubrikalari va muddatlar belgilangan;
- (3) **Milliy kontekstga moslik** – model O'zbekiston oliy pedagogik ta'lim muassasalari sharoiti va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun tavsiyalar:

birinchidan, modelning amaliy samaradorligini o'lchash uchun nazorat guruhi bilan solishtirilgan keng ko'lamli empirik tadqiqot (eksperiment) o'tkazish zarur;

ikkinchidan, O'zbekiston tarixiga doir mahalliy virtual muzeylar fondini yaratish va ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish muhim;

uchinchidan, model nafaqat tarix, balki ijtimoiy fanlar, adabiyot va madaniyatshunoslik kurslarida ham moslashtirib qo'llanilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, virtual muzeylar asosida tarixiy tafakkurni rivojlantirishning uch bosqichli pedagogik modeli zamonaviy ta'limning didaktik, texnologik va nazariy talablariga javob beradi hamda O'zbekiston oliy pedagogik ta'limida innovatsion o'zgarishlarni amalga oshirish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bloom, B. S. (Ed.). (1956). Taxonomy of educational objectives: The classification of educational goals. Longmans, Green.
2. Buhagiar, M. A., & Potter, T. (2018). Professional development and ICT literacy. *Journal of Education for Teaching*, 44(2), 191–205.
3. Hatton, N., & Smith, D. (1995). Reflection in teacher education: Towards definition and implementation. *Teaching and Teacher Education*, 11(1), 33–49.
4. Hu, X., & Hwang, G. J. (2024). Self-adaptive mobile concept mapping-based problem posing approach in virtual museum context. *Educational Technology & Society*.
5. ISTE. (2023). ISTE Standards for Students. International Society for Technology in Education.
6. Jonassen, D. H. (1999). Designing constructivist learning environments. In C. M. Reigeluth (Ed.), *Instructional Design Theories and Models: A New Paradigm of Instructional Theory* (Vol. 2, pp. 215–239). Lawrence Erlbaum Associates.
7. Joyce, B., Weil, M., & Calhoun, E. (2015). *Models of Teaching* (9th ed.). Pearson.
8. Kolb, D. A. (1984). *Experiential learning: Experience as the source of learning and development*. Prentice Hall.
9. Lévesque, S. (2008). *Thinking Historically: Educating Students for the Twenty-First Century*. University of Toronto Press.
10. Marovah, T., & Ncube, H. (2023). The pedagogical value of museums in the teaching and learning of secondary school history. *The Social Studies*, 115(2), 81–91.
11. Maryani et al. (2025). Museums as a valuable platform for teaching history: A scientometric review. *European Journal of Education*.
12. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge. *Teachers College Record*, 108(6), 1017–1054.
13. Morris, C. (2020). Digital environments and Kolb's learning cycle in higher education. *Journal of Educational Technology & Society*, 23(1), 1–14.
14. Piaget, J. (1954). *The Construction of Reality in the Child*. Basic Books.
15. Schweibenz, W. (2019). The virtual museum: An overview of its origins, concepts, and terminology. *The Museum Review*, 4(1).
16. Seixas, P., & Morton, T. (2013). *The Big Six Historical Thinking Concepts*. Nelson Education.
17. Springer Nature. (2024). My museum: A study of pre-service social studies teachers' experience in designing virtual museums. *Education and Information Technologies*. <https://doi.org/10.1007/s10639-024-12742-8>
18. Subramaniam, M. (2023). TPACK integration in pre-service teacher education: A meta-analysis. *Computers & Education*, 193, 104673.
19. UNESCO. (2021). *Museums Around the World in the Face of COVID-19*. UNESCO.
20. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
21. Wineburg, S. (2001). *Historical Thinking and Other Unnatural Acts*. Temple University Press.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.